

МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕҢДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/1-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Nusratova H. Ch. Ilmiy-ommabop matn va maqlolarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari	6
Rustamova Z. Dialektal korpus korpus lingvistikasining o'rganish ob'ekti sifatida	16
Bakiyeva H. S. Ona tili ta'limdi o'quvchilarning matn ustida ishlash va matn yararish ko'nikmalarini shakllantirish	21
Рамазанова Р. А. Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы	27

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ibadullayev Q. M. O'rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati	34
Xolmatova S. K. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubiyati	38
Narimbaeva L. K. Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlan tipishning muhim xususiyatlari va komponentlari	44
Rustamov L. X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari	51
Tursaotov A. E. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari	55
Mirzakarimova M. M. O'quvchilarning tadbirdorlik ko'nikmalarini rivojlanтирishda chil texnologiyalari	60
Jumanova F. U. Dars- ta'llimi taskil etishning asosiy shakli	64
Обидов А. Э., Джурاءв А. С. "Адаптив таълим" ходисаси ва унинг ўзига хослиги	69
Бозорова М. Қ. Ўкучи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик гоялардан фойдаланиш	82
Yarashev A. N. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarda ijtimoiy faoliik ko'nikmalarini rivojlanтирishning didaktik ta'lomi	86
Otamurodova Sh.Q. Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdag'i o'rni	92
Mamanazarova N. K. Xalq ta'llimi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini taskil etish mexanizmi	100
Egamberdiyeva M. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari	107
Шерматов Б. Б. Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов	112
Нигманов Б. Б. Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения	117
Мухамеджанов Ш. М. Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни	122
Нурманова Н. Қ. Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования	129

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ,
ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Алтинов И. И. Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, захирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаюм Сабирович хақида)	135
Давлетбоев Д. Е. Қорақалпоқ халқининг лочини	141



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Asanova U. S. Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardıń óz betinshe jumislarin shólkemlestirildiń ózine tán ózgeshelikleri	148
Isaqov J. A. Grafik ta'lím samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiyları imkoniyatlari	152
Isaqov J. A. Umumiy o'rta ta'lím tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari	157
Polotov K. K. To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi	162
Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И. Бўлгуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўкув тезаурусидан фойдаланиш	167
Azatova S. N. Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarida tartibga solish universal o'quv harakatlarini shakllantirish haqida	173

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Shanasirova Z. Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantrish yo'llari	179
Xurvaliyeva T. L. Maktabgacha ta'limdä art-texnologiyalardan foydalanish	185
Abdullayev A. A. Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari	189
Teshabayeva Z. S. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro'li	194
Nosirova R. X. Maktabgacha ta'lím tashkilotining oila, mакtab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari	198
Xidoyatova N. A. Maktabgacha ta'limdä qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	204
Karimjonova D. A. Maktabgacha ta'lím muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantrishning interaktiv metodlari	208
Tursunboyeva M. D. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari	213
Abdijabborova S. Q. Milliy harakatlari o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash	218
Soatov E. M. Harakatlari o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish jihatlari	222
Abdijabborova S. Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari	227
Ismanova M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari	231
Atabekov F. O. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi	237
Buriyeva A. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantrish	241
Ilesova L. A. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o'rni	244
Abduraximov D. D. Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish	248
Azamatova D. Sh. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati	252
Kodjaxanova K. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari	257
Ilesova L. A. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish	261
Abdullayeva L. U. Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lím jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish	267



БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARINI MA’NAVIY- AXLOQIY TARBIYALASH HAMDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

Shanasirova Z. Yu.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi
kafedrasi dotsenti*

Tayanch so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi namunalari, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, maktabgacha ta’lim muassasasi.

Key words: examples of folklore, spiritual and moral education, preschool education.

Ключевые слова: образцы фольклора, духовно-нравственное воспитание, дошкольное образование.

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalgilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlaganlar.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham maktabgacha ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgandagina bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining metodik tayyorgarligi samarali bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda alla-
qo‘sishqlarining ijtimoiy-g‘oyaviy mazmuni va tarbiyaviy ta’siri, xalq ertaklaridan
maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanish
mazmuni va xalq maqollari vositasida maktabgacha yoshdagagi bolalarda dastlabki
xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda muhim ahmiyat kasb etadi.



Alla – bolani uxlatalish jarayonida yakkaxonlik uslubida aytildigani qo'shiq. O'zbek, uyg'ur va tojik xalqlari orasida "alla" nomi bilan yuritiladi. Odadta oddiy kuylar bilan, ba'zida rechitativ tarzda, beshik yoki belanchakni tebratish sur'atiga mos ravishda ijro etiladi. Matni, asosan, to'rtlik; ijro uslubi erkin, badihago'y. Alla onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, o'git-nasihatlari, yaxshi niyat va tilaklarini, ruhiy kechimlarini ham ifodalaydi. Alla bola tug'ilgan kunidan boshlab oilada asosan, onalar, o'rni bilan buvilar, egachi, yangalar, ba'zan otalar tomonidan aytigan xalq qo'shig'idir.

Allalarning maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi xususiyatlari va ularni o'rganish tajribasini o'rganish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin.

- 1). Alla bolalarni ruhiy-hissiy, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim tarbiya vositasini hisoblanadi;
- 2). Alla vositasida bola atrof-muhit, ijtimoiy borliq bilan tanishtiriladi;
- 3). Allalarda faqatgina ezgu-g'oyalari kuya solinadi, bu bolalarda tinchlantiruvchi, orom baxsh etuvchi xususiyatga ega bo'ladi;
- 4). Alla kuylanganda bolada mehr-muhabbat, samimiyat, umid, ishonch, orzumandlikning ilk kurtaklari shakllantiriladi.

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga aytib, o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklardan ko'zlangan maqsad, birinchidan, bolalarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash bo'lsa, ikkinchidan bo'lsa bolalarni dunyoqarashini o'stirish, ularda diqqat, xotira, tasavvur va motivlarni shakllantirishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, psixik rivojlanishlariga mos keladigan, o'zida ma'naviy-axloqiy sifatlarni jam qilgan ertaklar klassifikatsiyalangan. Bu ertaklarda o'rtoqlik va do'stlikning oljanobligi, kamtarinlik, saxiylik, to'g'riso'zlik, vatanpravarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini targ'ib qiluvchi jarayonlarni aynan maktabgacha yosh davridan boshlash va unga amal qilish zarurligi targ'ib qilinadi va bolalarni ham shu ertakdagi ijobiy obrazlardan namuna olishga undaladi.

Maqol xalq og'zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar asosan hayotiy tajribalar asosida maydonga keladi. Asrlar bo'yi og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan maqollarda keng mehnatkash xalq ommasining dunyoqarashi, jamiyat va mehnatga munosabati, ota-onaga hurmat va Vatanga cheksiz sadoqat motivlari mujassamlashgan. Shuningdek, maqollarda xalq orzu-umidlari, insonparvarlik hislari ufurib turadi.

Maqollar mavzu jihatidan boy, xilma-xil va rang-barangdir. Ularda ona - Vatanni sevish, do'stlik, birodarlik, dushmanga nafrat, ahillik va birdamlik



g‘oyalari, yaxshilik, halollik, to‘g‘rilik hamda rostgo‘ylik ulug‘lanadi, yomonlik, yolg‘onchilik va qalloblik esa qoralanadi:

Maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantirishi, ularda hayotiy tushunchalarning boyitishi, eng asosiysi, har bir maqol mazmuniidagi insoniy fazilatlar; vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, do‘stlik va uni qadriga yetish, kamtarinlik, rostgo‘ylik, halollikka o‘rgatish va aksincha, yomon illatlardan holi bo‘lishga da’vat etilishi masalalari o‘z aksini topgan.

Jumladan, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida nutqiy vazifalarni hal etish uchun u yerda turli shartsharoit yaratish muhim zamin hisoblanadi. Bunday sharoit bolalarda gapirish, atrofdagilarni nomlash, nutkiy muomalaga kirishish istagini tug‘dirishi kerak.

Bola nutqini to‘g‘ri shakllantirishning umumiyligi vazifalarini aniqlashtirar ekanmiz, uning tarkibiy qismlariga to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. O‘zaro aloqadorlikdagi bunday vazifalarni shartli ravishda yettitaga ajratish mumkin. Ular til va nutqning asosiy komponentlariga muvofiq keladi.

1. Lug‘atni o‘stirish. Maktabgacha yoshdagagi bolalar tilning asosiy lug‘at fondidan so‘z o‘zlashtiradi. Ularni tanlash atrofdagilarning lug‘ati, bolaning atrof hayotni mo‘ljal olishi va boshqalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim muassasida lug‘at ustida ishslash dasturi mavjud. U tarbiyachiga bolalarni so‘z tanlashga o‘rgatish uchun mo‘ljal olishga yordam beradi. Tarbiyachi, avvalo, bolaning atrofdagilar bilan normal muomalada bo‘lishi uchun muvofiq so‘zlarni tanlaydi. Bunday so‘zlarni bolaning o‘z holicha tanlashi qiyin. To‘g‘ri, bola ularni o‘zlashtiradi, ammo kattalarning yordami bo‘lmasa, tartibsiz ravishda, sekinlik bilan, qiyinchilik va xatolar bilan o‘zlashtiradi. Tarbiyachi maxsus usullarda yo‘nalish beradi. Natijada u bola zarur so‘zlearning ma’nosini bilib va tushunibgina qolmasdan, balki ularni o‘z nutqida faol qo‘llay olishiga, bolalarda so‘zga qiziqish va e’tibor oshishiga ham erishadi. “Nega shunday deyiladi?”, “Shunday deyish mumkinmi?”, “Shunday qilib yaxshiroq, aniqroq aytish kerak?” kabi usullar shular jumlasidandir.

Og‘zaki nutq madaniyatiga o‘rgatib, tarbiyalay borib, bolalarni qo‘pol iboralar va oddiy so‘zlashuvdagi so‘zlardan qochish, ularni adabiy tildagi muqobillari bilan almashtirishga o‘rgatadi. Lug‘at ishi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Qaysi bir narsa va hodisani bildiruvchi so‘zlar to‘g‘risidagi xabar o‘sha ob‘ektlar bilan tanishtiruvchi umumiyligi o‘kuv-tarbiyaviy jarayonda beriladi.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. Lug‘at til uchun qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika so‘zlearning o‘zgarishi va ularning gapda



ко‘shilish yo‘llarining me’yorlarini o‘rgatadi. Byndan tashqari, tilning konstruktiv modellarini (so‘z yasash, so‘z o‘zgartirish) belgilaydi.

Bola atrofdagilardan grammatic shakllangan nutq eshitadi. Eshitganlarini fikr qilib, grammatic qurilishni o‘zlashtiradi, til modelini anglaydi. Tarbiyachi bolalar bilan xilma-xil nutqiy amaliyotlar tashkil etadi. Til o‘rgatish tizimiga turli mashqlar kiritadi. Bu mashqlar bolalar e’tiborini ancha murakkab, shu bilan birga, ular uchun zarur jumla yoki birikma, ibora tuzilishlariga tortadi. Shuningdek, bu mashqlar ular nutqida ona tilining morfologiyasi va sintaksisiga oid ma’lum qoidalarni mustahkamlaydi. (“Biz orzuga erishsak ...” -nutqda istak maylini qo‘llash mashqi. “Karim Ahmadning kitobini so‘radi” - bosh va qaratqich kelishiklaridagi otlarni qo‘llash mashqi. “Men boshlayman, sen esa tugalla” - sodda yoyiq gaplarni, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni qo‘llash mashqi va boshqalar.) Tarbiyachi bolalarni ular uchun yangi bo‘lgan grammatic shakllar bilan tanishtiradi, ancha qiyin shakllarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, oxir oqibatda, grammatic jihatdan to‘g‘ri gapirishga odatlantiradi.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Bola, eng avvalo, tilning tovush qurilishini, tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini egallashi kerak. Nutqning tovush tomoni ustidagi ish o‘zbek tili fonetikasi va orfoepiyasi ma’lumotlariga asoslanadi. Bola taqlid qilib va odatlana borib, kattalarning ta’sirida so‘zlarda ypg‘y tizimini, ona tilining intonatsion (ohang) qurilishi, so‘zlearning talaffuzini mo‘ljalli ravishda o‘zlashtirib oladi. Bolaning nutqiy muomala chog‘ida fe‘l-atvor madaniyatiga o‘rgatish ham muhimdir. U so‘zlaganda, samimiyl ohang, so‘zlovchiga diqqat bilan qarash, yangi jamoada o‘zini tuta bilish va boshqalarga odatlanishi kerak.

Nutqning eng muhim xususiyati uning ifodaliligidir. Bolalarda bu fazilatni tarbiyalash ularning ertangi kuni uchun zarurdir. Chunki bunday bolalar ulg‘ayib, ko‘philik oldida so‘zlashda chechan bo‘ladilar, notiqlikda o‘zini ko‘rsata oladilar. Shuning uchun bolalarda tabiiy ifodali nutqni tarbiyalash lozim. Ularning nutqi ifodalarga boy, so‘zlashganda ko‘zлari charaqlab, yuzlarida va harakatlarida fikri va his-hayajonlari aks etib tursin.

Maktabgacha yosh ana shunday odat va ko‘nikmalarini hosil qilishga eng qulay davrdir.

4. So‘zlashuv (dialogik) nutqni shakllantirish. Bolalarda o‘zlariga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, suhbatni qo‘llab-quvvatlash, savolga javob berish va so‘rash ko‘nikmalarini hosil qilish lozim. Bog‘lanishli so‘zlashuv nutkining darajasi bolaning lug‘at boyligi va tilning grammatic kuriishini qay darajada egallaganligi bilan bog‘liqdir. So‘zlashuv nutqi suhbatdosh bilan muomala sifatida suhbat chog‘ida o‘zni tuta bilish, odobli bo‘lish, madaniyat saqlash kabilarni ham taqazo etadi. Tarbiyachi bolalar suhbatining mazmundor bo‘lishiga ta’sir



ко‘rsatadi, bir-birlaridan yangiliklarni bilib olish xohishlarini rag‘batlantiradi. Shuningdek, tarbiyachi bolalarga, agar ular kattalardan mehnatlari, dam olishlari va boshkalarni so‘rasalar, ko‘p narsalarni bilib olishlari mumkinligini ham aytib qo‘yishi kerak.

5. Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o‘rgatish. Monologik nutqni egallash bolalarni maktabga tayyorlash uchun muhimdir. Maktabda esa bu fazilat mustahkamlanadi. Bog‘lanishli nutq tafakkurning, uning turli xususiyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, hikoya bolaning so‘z boyligini hosil kilishiga, jumla tuza olishiga, mazmunni kompozitsiyaga sola olishiga yordam beradi. Bunda bolada ko‘rgazmali bo‘lmagan har qanday og‘zaki hikoyani tinglay olish, ularni tushunish, so‘ng esa tinglaganlariga taqlid qilish, ya‘ni o‘ziga ham qayta hikoya qilish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagи bolalarga o‘zлари ham oddiy hikoyalar tuzish o‘rgatiladi. Ularning mazmunida ham, shaklida ham bolaning mustaqilligi va ijodiy faolligi ifoda topishi kerak.

Maktabgacha ta’lim muassasida shoshilmasdan, o‘z fikrini o‘ylab, tinglovchilarga murojaat qilib hikoya qilish ko‘nikmalari tarbiyalanadi. Shuningdek, notanish davrada, masalan, bayramlarda, kattalar ishtirokida, boshqa guruhlarda so‘zlashga ham odatlantiriladi. Bu esa nutkning takomillashuviga yordam beradi, topqirlikni, jamoada o‘zini tuta bilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiyalanuvchilar bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari bilan tanishtiriladi. Tarbiyachi bolalarda ayrim oddiy ko‘nikmalarni tarbiyalaydi. Bular badiiy asarni tinglash va tushunish, uning qahramonlari to‘g‘risida mulohaza bildirish kabilardan iboratdir. Bolalar ayrim mazmunan sodda va oson she’rlarni eslab kolishlari, ifodali o‘qishlari, yod aytishlari lozim. Bu vazifalarning barchasi bolada axloqiy qiyofa va estetik tuyg‘ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Tarbiyachi har bir bolada suratlarni tomosha qilish va o‘qishga qiziqish uyg‘otishi, kitob bilan to‘g‘ri muomala qilishga, o‘z bilimlarini o‘rtoqlari bilan baham ko‘rishga o‘rgatishi kerak. Shunga erishish kerakki, bog‘chada badiiy so‘z bolalarning doimiy hamrohiga aylansin. U kundalik so‘zlashuv nutqida yangrab tursin, tantanali, bayramona kayfiyat baxsh etsin, inssenirovkalar, dramalashtirilgan o‘yinlar, kinofilmilar orqali jonlanib, bolalar bo‘sh vaqtini to‘ldirib tursin.

7. Bolalarni savodxonlik ta’limiga tayyorlash. Maktabgacha ta’lim muassasida bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha butun pedagogik ish ularni maktabda o‘qishga tayyorlashga xizmat qiladi. Maktabda esa bolaning to‘g‘ri og‘zaki nutqi, boshqalarni tinglash, ularning suhbatiga aralashib, fikr va munosabat bildirish, zarur bo‘lganda, o‘rtog‘ining javobini to‘lg‘azish yoki tuzatish ko‘nikmalari



darkordir. Nutq bolalarga tahlil predmet bo‘lib qoladi. Bu esa ularga katta qiyinchilik bo‘lib tuyuladi. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun quyidagi sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi: pedagog tomonidai aytilganlarni tinglay olish, o‘z fikrini yoyiq sodda gaplarda, uncha katta bo‘Imagan bog‘lanishli hikoyalarda, aniq, ochiq-oydin, grammatic jihatdan turli ifodalay olish.

Bu ko‘nikmalar bolalarda, asosan, yuqori va tayyorlov guruhlarida maqsadli-
mo‘ljalli yo‘nalishda hosil qilinadi. Shu bilan birga, olti yoshli bolalarga savod o‘rgatish ishlari ham olib boriladi. Bolalar nutqning tovush tahlili bilan shug‘ullanadilar, uch so‘zdan gap tuzadilar va boshqalar.

Shunday qilib, biz bolalar nutqini o‘stirishning yettita asosiy vazifasini ajratamiz. Bu vazifalarning ko‘pchiligi maktabgacha ta’lim muassasining barcha yosh guruhlarida hal etiladi. Faqat ularning aniq mazmuni hap xil bo‘ladi. Chunki u bolalarning yosh imkoniyatlariga bog‘liqdir. Ko‘rsatilgan vazifalarning har biri ham ta’limiy, ham tarbiyaviy jihatga ega. Nutq o‘stirish jarayonida shaxsning aqliy sifatlari shakllanadi, axloqiy, estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

Adabiyotlar:

1. Maxmudova O.A.»Maktabgacha yoshdagи bolalarni rasm chizishga o‘rgatish metodikasi».O‘quv qo‘llanma.»NISO POLIGRAF» Toshkent, 2019y.-152 b.
2. Sodiqova Sh.A - Maktabgacha pedagogika. Darslik - T.: Tafakkur bo‘stoni.- 470 b.
3. Содиқова Ш.А., Расулхо‘жаева М.А. Болаларни табиат билан таништириш методикаси. О‘кув qо‘лланма – Т.: “Фан ва технология” 2013
4. Qodirova F.R.- Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari - T.: “ISTIQLOL”, 2006y. - O,,quv qo,,llanma.

РЕЗЮМЕ

Maqlolada xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarni ma’naviy-
axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan. Zero, maktabgacha yoshdagи bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda alla-qo‘shiqlarining ijtimoiy-g‘oyaviy mazmuni va tarbiyaviy ta’siri, xalq ertaklardan maktabgacha yoshdagи bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanish mazmuni va xalq maqollari vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarda dastlabki xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda muhim ahmiyat kasb etadi.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируется вопрос нравственно-нравственного воспитания дошкольников и развития речи средствами народного творчества. Потому что социально-мировоззренческое содержание и воспитательное воздействие песен Аллаха в духовно-нравственном воспитании дошкольников, содержание использования народных сказок в духовно-нравственном воспитании дошкольников, исходное поведение дошкольников через народные пословицы играет важную роль. важную роль в формировании культуры характера.

SUMMARY

The article analyzes the issues of spiritual and moral education of preschool children and the development of speech through examples of folklore. The socio-ideological content and educational impact of folk songs on the spiritual and moral education of preschool children, the content of the use of folk tales in the spiritual and moral education of preschool children and the early behavior of preschool children through folk proverbs. plays an important role in shaping the culture of behavior.



Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮЙ»

№ 1/1

Нөхис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәнзил: Нөхис қаласы, Ернаzar Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uziksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда жергияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзлиksiz bilimlenдириүй» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген маглұйматтарға автор жууапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100^{1/8}
«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Бүйыртпа №